

TOG'AY MUROD ASARLARI SYUJETI.

Roziqova Dildora Umrboy qizi.

Buxoro davlat universiteti, magistranti

E-mail: dildoraroziqova59@gmail.com

+99893-145-88-68

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Tog'ay Murodning qissa va romanlari haqida so'z yuritilib, ular syujet jihatidan tahlil qilinadi. Shuningdek, Sho'ro tuzumidagi mudhish va ayanchli voqealar ham batafsil fosh etilgan.*

Tayanch tushunchalar: *Obraz, yozuvchi mahorati, Sho'ro tuzumi, syujet, ekspozitsiya, tugun, kulminatsiya, tragediya.*

Syujet badiiy asar mazmunini tashkil etadigan, bir-biri bilan o'zaro bog'lanadigan, qahramonlar o'rtasidagi munosabatlarni yuzaga chiqaradigan omillardan biri hisoblanadi. Aynan syujet voqealar izchilligini, rivoji, atrofdagi yuz berayotgan voqea-hodisaga munosabat beradi. **“syujetning badiiy asardagi funksiyalari haqida so'z ketganda, avvalo, uning *asar problemasini badiiy tadqiq etishga imkon beradigan hayot materialini uyushtirib berishini* aytish kerak.** Demak, syujet asarda mavzuni shakllantirgani holda, uning qanday bo'lishi mazmunga, muallifning ijodiy niyatiga bog'liq bo'lib qoladi”¹. Aytish mumkinki, syujet mavzuning mohiyatini ochib beradigan, ijodkor niyatini ro'yobga chiqaradigan badiiy unsur hisoblanadi. Aynan syujet va uning unsurlari orqali, asar o'qib tushunilishga, g'oyasini kitobxonga yetkazishga qodir bo'ladi. Syujetning ikki xil turi farqlanadi. Tashqi harakatga bog'liq rivojlanib boradigan va ichki harakatga bog'liq holda rivojlanadigan. Dastlabki turida asar qahramonlarining muayyan maqsad yo'lidagi intilishlari, kurash va to'qnashuv hayotdagi burilishlar ifodalanadi. Bunday syujet turida voqealar bir-biriga o'zaro bog'langan va to'laqonli izchillikda beriladi. Xalq og'zaki ijodi namunalarini: ertak, hikoya va dostonlar tashqi syujetga asoslangan bo'ladi. Zamonaviy o'zbek nasri namunalarini: "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon", "Kecha va kunduz", "Qutlug' qon", "Sarob" — bu asarlar barchasida tashqi harakat dinamikasi yetakchilik qiladi. Syujetning ikkinchi tipi ancha yoshroq hisoblandi, chunki u o'tgan asrning 80- yillarida ko'zga tashlana boshladi. Syujetning bu turida asar voqealarida emas balki, qahramonlar ruhiyatida tub burilishlar, o'zgarishlar ko'zga tashlanadi. “Badiiy asar sujeti ekspozitsiya, tugun, voqea rivoji, kulminatsiya, yechim singari unsurlardan tarkib topadi. Ba'zi asarlarda ekspozitsiyaga juda keng

¹ Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish- www.ziyouz.com kutubxonasi. – B. 108

o‘rin beriladi va ko‘pincha asarning boshlanishida beriladi. Ammo, ba’zi bir asarlarda u umuman, bo‘lmasligi, boshqa unsurlardan keyin joylashishi mumkin. O‘zbek adabiyotida Cho‘lponning “Kecha va Kunduz” hamda Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” asarlarida ekspozitsiya keng va atroflicha berilgan. Asar qahramonlari Zebi, Kumushbib, Anvar va Ra’nolarni yaqindan tanibgina, so‘ngra, asarga kirishib ketamiz. Ularning xarakterini, ham botiniy ham zohiriy g‘zalligini anglab, tushunib, ajib bir muhabbat ila o‘qishda davom etamiz. Ammo Tog‘ay Murod asarlarida ekspozitsiyaga alohida o‘rin berilmagan, asar qahramonlarining kim va qanday ekanligini butun asar mobaynida anglash mumkin. Asardagi qahramonlar ruhiyati yoki asar kechadigan voqealar asar boshlanishida alohida boshlab berilmagan. Uning hikoyalaridan tortib toki romanlarigacha alohida ekspozitsiya qismi yo‘q. “Yo‘q, ular Anhor bo‘yida uchrashmadi. Uchrashuvda o‘ziniki qilib aytish uchun kitoblardan she‘rlar ko‘chirib olmadi. O, men seni sevaman, sensiz yashay olmayman qabilidagi mavsumiy so‘zlarni so‘zlashmadi. Lablar topishganda qizning uzun tovonni yerdan sal ko‘tarilmadi. Yo‘q, yigit qizni bezorilardan qutqarib qolmadi... Yaxshi shoir O‘rolboy ko‘rpaga burkanib, ishqiy she‘r bitdi. Misralarini farzandiday ardoqlab, voyaga yetkazdi. Beixtiyor o‘zining birinchi muhabbatini — sinfdoshi Xolbuvini esladi...”². Ushbu “Er va xotin” deb nomlangan hikoyada asar to‘g‘ridan-to‘g‘ri tugun qismidan boshlanib ketgan, uchrashuvga kimlar chiqdi? Ularning xakteri, ko‘rinishi tanishtirilmay o‘quvchiga notanish bo‘lgan uchrashuv haqida gap boradi, biroz asar ichiga kirgandan so‘nggina bu uchrashuv shoir yigit O‘rolboy va sodda, samimiy qishloq qizi bo‘lmish Barchinoyga tegishlilikini bilish mumkin.

Tog‘ay Murod ijodida umumbashariy adabiyotga aloqador bo‘lgan talqin o‘zbek milliy mentaliteti bilan uyg‘unlashtirib yuborilganining guvohi bo‘lishimiz mumkinki, betakror badiiy mukammal qissalari bilan XX asrning 80-yillari o‘zbek nasri rivojiga katta hissa qo‘shdi. Tog‘ay Murodning asarlariga e‘tibor bersak, aksariyat hollarda fojia bilan tugaydi. “Oydinda yurgan odamlar” qissasida Oymomo vafot etadi va bu hayotda uchrashi mumkin bo‘lgan fojia hisoblanadi, ammo “Otamdan qolgan dalalar” romanidagi Dehqonqul va unga o‘xshash odamlar tragediyasi aynan ijtimoiy holat bilan bog‘liq. Bu birgina Dehqonqulga emas, butun millatga kelgan fojia, chunki bunday insonlarni tuzatishniyam, o‘zgartirishniyam imkoni yo‘qdek tuyuladi. Binobarin, dastlabki asarda barcha qahramonlar o‘zining vazifalariga mos tarzda tanlanganligini ko‘rishimiz mumkin. Hattoki, Said Ahmad “Tog‘ay Murod doston yozdi. Otini “Oydinda yurgan odamlar” qo‘ydi” – degan fikrlarida ham ma’lumki, bu asarning nomini eshitgan zahoti insonning qalbida emtik bir his nish ura boshlaydi, o‘sadi, rivojlanadi va oxir-oqibat qovjirab qoladi. Ushbu qissada Qoplun va Oymomo

² Er va Xotin hikoya . www.ziyouz.com kutubxonasi. - B.1.

tundan tongga, kundan yilga qadar faqat bitta orzu farzand orzusi bilan yashaydi. Ammo ular uzoq yil birga yashasalar ham, Olloh ularga farzand ato etmaydi, ular bir-birlarini bobosi, momosi deb chaqirishadi, ammo farzand bo'lmish buyuk ne'matdan xabar yo'q. Qoplonbek ham, Oymomo ham halol, vijdonli, ko'ngli toza, mehrga limmo-lim insonlar. Eng muhimi ularning iymon-e'tiqodi kuchli. Chunki, ular umuman umidsizlikka tushmaydilar. Xalqimiz orasida "Noumid shayton" degan aqida bor, aynan shu aqidaga sodiq qolib, umrining oxirigacha Ollohdan madad kutib yashaydi. Bormagan doktori, tabibi qolmagan bo'lishiga qaramasdan umuman ortga chekinmaydi, yo'lida davom etaveradi. Hattoki tug'ilmagan farzandlariga ismlar tanlab qo'yishgandi.

"- Otini nima qo'yamiz?-dedi.

Barchinoy.

-Sen hali.....

_Qiz yaxshi-da. Menga yordamchi bo'ladi.

- Yo'q o'g'il bo'lsin. Otini-da o'ylab qo'yibman:
- Xushvaqt!"³

Shunday ezgu niyatlarning samarasi o'laroq, Barchinoy va Xushvaqt ular uchun ushalmagan orzu bo'lib qoldi. Adib aynan bosh qahramonning ismini Oymomo deb nomlagani ham bejiz emas aslida, ushbu asrda adib asarning bosh qahramonini oyga mengzaydi. Hattoki oyningda yuzida bitta dog'i borligi kabi Oymomoning ham bitta aybi bor, u ham bo'lsa uning bepushtligi. Oyning vazifasi boshqalarga nur ulashib, ularni to'g'ri yo'lga boshlab tursa, Oymomoning vazifasi ham qo'lidan kelgancha, imkoni yetgancha atrofida qilargalarga yordam berish. Shunga monand ravishda Qoplon ham qat'iyatli, so'zidan qaytmas, sabrli, iymonli erkak sifatida gavdalanadi. Undayam Dehqonqulga o'xshash bitta odati bor, u ham dehqonchilik ilmini ancha yaxshi biladi va kattalar buyurgan ishning hammasini hech zoriqmay qilib ketaveradi, Dehqonquldan farqli ravishda yerni emas oilasini, ayolini birincha o'ringa qo'yadi, ayolining birgina iltimosi sabab ishini tashlab bo'lsa-da doktorga yoki folchinikiga ketadi. Farzand ilinjida er va xotin qo'lidan kelganini qiladi. Ularning bir-biriga hurmati, mehr-muhabbati cheksiz edi ammo taqdiri-azal buni ularga ko'p ko'rdi va ularni bir-biridan ayirdi. Oddiygina ajal shamoli, hayotda farzand ko'rish ilinji bilan yashagan, ammo onalik baxtini bir martagina, qo'shnisining farzandini tebratish jarayonida bir marta bo'lsa-da his qilgan Oymomoni bu foni dunyoga ravo ko'rmadi. Asarni o'qir ekan kitobxonning qalbida tobora o'sib borayotgan gullar ham axiyri quriydi, umid uchqunlari Oymomo bilan birga dafn etiladi. Ushbu asarda so'nmas o'zbek qadriyatlari, to'y marosimlari tasviri ham atroflicha va keng yoritilgan. Bu tasvirlar shunchalar aniq berilganki, bu kitobni o'qigan kitobxon, garchand boshqa

³ Murod, Tog'ay «Oydinda yurgan odamlar» - T.: « Sano-standart» nashriyoti, 2017, - B.36

madaniyat vakili bo'lsa-da, bunday go'zal, sharqona urf-odatlardan bahramand bo'lmaslikning iloji yo'q. Qissada keltirilgan marosimlarning ildizi borib Alpomish dostonidagi voqealarga borib taqalishi, asarning badiiy qiymatini oshirgan. Asarda badiiy tasvir va ifoda vositalariga keng o'rin berilishi ham, tasvirning jonli bo'lishi va ifodaviylikning kuchayishiga xizmat qilgan. Dastlabki boblarda to'y marosimlari bilan tanishgan kitobxon qissaning keyingi boblarida qahramonlarning ruhiy holatini tabiat tasviri bilan parallel ravishda tasvirlanishining guvohi bo'ladi. Shu o'rinda bir holatga e'tiborimizni qaratsak. "Ufq qorayib –qorayib keldi, qop qora bulutlar ko'pirib-ko'pirib toshdi, bulutlar yoyilib yoyilib keldi,"⁴ bir qarashda oddiygina tabiat tasviri berilganday tuyuladi, aslida esa parchada Qimmat momoning, Oymomoga farzandsizligini butun qishloq ayollari oldida, yuziga solib aytgan gapidan so'ng, uyiga yugurib ketayotgan qahramonning ruhiy holati bilan bulut detalini yonma yon qo'yadi, bu yerda bulut detali qahramonning ruhiy kechinmalarini to'la qonli ochib berishga xizmat qilgan. Bunday o'rinlar asarda talaygina bo'lishining sababi, Tog'ay Murod inson va tabiatni bir butunlikda tasvirlashga harakat qilgan ijodkorlardan hisoblanadi. Adibning ijtimoiy-falsafiy ruhdagi romaniga yuzlanadigan bo'lsak, bunda ham ulkan fojiga guvoh bo'lamiz, ammo bu fojia juda ulkan, butun bir millat taqdiri, tanazzuli bilan bog'liqdir. Asarda uchta avlod : Jamoliddin, Aqrab va Dehqonqullarning ayanhli taqdirlari haqida so'z boradi. Asar syujeti asardagi qahramonlar liniyasini birlashtirib, G'oya tashishda muhim rol o'ynaydi. Yozuvchi o'zi yozmoqchi bolgan mavzuni yoritib berishda, asosiy qahramonlarga qo'shimcha ravishda boshqa taqdirlarni ham kiritishi mumkin. Masalan, "O'tkan kunlar" romanida: Usta olim va Saodat munosabatlari. "Qutlug' qon" romanida Yo'Ichining taqdiridan tashqari, Gulnor va Nurining taqdir liniyalaridir. Lekin bularning hammasidan maqsad bitta: asarni bekam-ko'st tushunarli qilib, g'oyani bevosita yetkazishdir. Shu jumladan Tog'ay Murod ham ozining "Otamdan qolgan dalalar" romanida uchta taqdirni ketma-ket izchillikda bir-biriga bog'lab ko'rsatib beradi. Lekin bu taqdirlar bir-biriga begona emas, balki bitta taqdirning turli xil davomchilaridir. Asarning nomidan ma'lumki, Otamdan qolgan dalalar bejizga asar bunday nomlanmagan. Bundan maqsad farzand, Otadan faqatgina mol-mulk, moddiy narsalar emas balki undan boshqa tuyg'ularni: erk, ozodlik, g'urur, andisha tuyg'ularni ham meros qilib olishi kerak. Asar syujeti faqatgina bitta uchinchi avlod namunasi bo'lmish Dehqonqul tomonidan aytib beriladi. Dastlab Jamoliddin ketmon hayoti taqdir chizig'i aytib o'tiladi. Asosiy taqdir yo'li deganda ham uning oilasi, farzandlari emas balki uning insoniylik, g'urur tuygulariga alohida e'tibor berilgan. Uni juda ham qattiq ishlaydigan, mehnatdan voz kechmaydigan, Imon etiqodi yuksak shaxs sifatida gavdalandirgan. Tog'ay Murodning boshqa adiblardan farqli jihati shundaki, asarning syujetiga umuman aralashmaydi, o'z

⁴ Murod, Tog'ay «Oydinda yurgan odamlar» - T.: « Sano-standart» nashriyoti, 2017, - B.35

vazifasini Dehqonqulning ya'ni asosiy hikoya aytib beruvchining zimmasiga yuklaydi. Bu romanda bir o'zbek dehqoni sulolasining uch vakili-bobo, ota va o'g'il taqdiri timsolida o'zbek xalqining istibdod ostida kechgan 130 yillik hayoti badiiy talqin qilinadi. Jamoliddin, Aqrab, Dehqonqul obrazlarida bitta umumiy jihat bor, ularning hammasi shu ona-yerni sevishadi, uni o'zgacha mehr ila e'zozlashadi. Oллоh bergan rizqni shu zaminda topishadi. Jamoliddin nazdida tuproq buloq suvidek pokiza, farzandlaridek aziz. "Bobomiz urmish ketmonni o'zidan o'zga yerdan tortib ololmaydi. Bobomiz kalima qaytarib-qaytarib ketmon chopadi. Xudoni yodlab-yodlab ketmon chopadi, Xudoga shukrona aytib-aytib ketmon chopadi"⁵. Uning yerga, ona zaminga bo'lgan mehri bo'lakcha. U o'zining yerlarini har doim dalalarga oyoq qo'ygan, harom-harish ishlar qilgan mustamlakachilardan nafratlanadi. Farzandini ham yerga muhabbat ruhida, elparvar qilib tarbiyalaydi. Jamoliddin chor Rossiyasi istilosining guvohi bo'lsa, Aqrab o'zlarini endi «Qizillar» deb ataguvchi o'sha vahshiy jamiyatning ikkinchi bir avlodi bilan yuzma-yuz bo'ladi. Qizillar oddiy xalqqa «Hukumat, yerlar sizniki, butun boylik sizniki, hamma teng huquqli, xalq o'z taqdirini o'zi belgilaydi» deb yolg'on va'dalar berib, xalqning ko'pchilik qismini ayyorona tarzda o'zlarining maqsadlari sari yetaklaydi. Ammo xalq orasida ularning asl maqsadini anglagan ziyarak, mard yigitlar ham bor edi. Ammo bunday insonlarning hayoti o'lim bilan yakun topardi. Uchinchi avlod vakili Dehqonqulda esa yerga mehr bobosi va otasidan o'tgandi ammo unda shijoat, erkinlikka intilish tuyg'ulari, isyonkorlik ruhi yo'qolgandi, bobo va otada bosqinchilarga nisbatan nafrat hissi, isyonkorlik ruhi bor edi, ammo Dehqonqulda ularga itoat ruhi ancha kuchli edi, u nolish nimaligini bilmasdi, ammo Dehqonqul yolg'iz emas edi, o'sha davr nuqtayi nazari bilan qaraganda bunday tipdagi odamlar anchagina edi. Asarda asosiy taqdirlardan farqli ravishda, birinchi avlod davrida yashagan qisqa syujetli Ibodon Soqov taqdiri ham berib o'tiladi, bu ham albatta asar mazmunini boyitishga, mustamlakachilarning qay yo'sinda, qay tartibda kirib kelganligini aks ettirishda muhimdir. Ibodin Soqov kasal onasi bilan qatiq sotib Kun ko'radigan oddiy, sodda yigit edi. Oqqodsho kelib uni g'ururini toptab ("Onasini sog'ib qatiq qiladimi" qancha haqorat qilsa ham iljayib turayveradi. Yoki Oqqodsho uning qatig'iga tupurganida ham uning qo'lidan yig'idan boshqa hechnarsa kelmaydi."Lablarini buradi-buradi... Ho'ngrab yiglab yuboradi. Qatig'ini ko'rsatib- ko'rsatib yig'laydi: EA-ea, bu degani endi onamga Nima deyman deya taajjublanadi. Bu syujetni kiritishdan maqsad, Dehqonqulday avlodni o'z-o'zidan paydo bo'lmaganini ko'rsatishdir. Chunki, Jamoliddin Ketmon va Aqrab kabi mard, jasur, keskir so'zli insonlar davrida ham Ibodinga o'xshash qancha insonlar bor edi. Muhit natijasi o'laroq Dehqonqul ham qo'rqqoq, laganbardor inson sifatida shakllandi. Bundan tashqari General Skobelev obrazining kiritilishi ham asosiy g'oyani yuzaga

⁵ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2018.- B.12

chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Aslida Yurtda jasoratsiz, qo'rqoq kimsalar o'z-o'zidan sodir bo'lib qolmaydi, buning asosiy sabablaridan biri Mana shunday qonxor, inson degan nomga nomunosib bo'lgan kimsalardir. "Bilasanmi, Eshon, Ulug' o'rusiya Nima uchun yovvoyidan yovvoyi Osiyoga tashrif buyuradi! Ulug' O'rusiya oldida sart-sobakadan inson yaratishday bashariy ham savob ish turibdi...-Eshon tugul, - General Skobelev. Muhammad payg'ambar bo'lsayam, etigim poshnasiga olmayman." Mana shunday zolimlar sabab avlod almashgani sayin o'zbek o'ziga bekligini yo'qotib bordi. Ammo Nima uchun? Chunki bu tuzumni Aqrab ham ko'rgan ediku, u nimaga o'zligini yo'qotmadi, So'nggi nafasigacha kurashdi? Chunki unda qat'iy va yengilmas iroda bor edi. Hechkim yengib tugatolmaydigan iroda. Asarda Rus istibdodchilarining Aqrab hayoti bilan tutashib ketganligida ham bejiz emas. Ularsiz Tog'ay Murod Sovetlarning oddiy Xalq boshiga tushgan kulfatlarini, azob uqubutlarni aks ettira olmasdi. "Ey, mocha churka, men senga o'chir deyapman! Deydi Uspenskiy. ... So'kayotganim yoq deydi. - Mochani mocha deydid. Sen hangi [baqiroq, shang'i] churka, zaifang mocha churka! Yurting Churkiston"⁶. Bu insonlarning hayoti zahar zaqqumga to'la erksizligini, ularning qadri, hurmati toptalishini ko'rsatadi. Eng achinarlisi sotqinlar, yurt himoyachilarini ushlab berganlar aslida o'zbeklar edilar. Shunday malomat, tuhmat toshi yog'ilgan o'zbeklar orasidan xoinlar, sotqinlar yetishib chiqqandilar. Aqrabni ham sovetlarga ushlab bergan Normurod edi, Normurod ham Chanishev va Uspenskiylarga o'zini yaxshi ko'rsatish, laganbardorlik qilish maqsadida o'z vatandoshini sotdi. Demak, davr nuqtayi nazaridan Normurod yoki Dehqonqulga o'xshash kimsalarning yetishib chiqishi tabiiy hol edi. Ammo Tog'ay Murod ushbu romani orqali o'z maqsadiga erishdi, g'ayridinlardan hech qachon do'st chiqmasligini Dehqonqul obrazi va u boshdan kechirgan azoblar orqali ko'rsatib berdi.

Bo'ri polvon, Ziyodulla chavandoz, Qoplon bobo, Oymomo kabi ko'p qirrali go'zal obrazlarni yaratib, qalami ancha o'tkirlashgan Tog'ay Murod o'z ijodida romanga xos tafakkurni shakllantirdi va o'ziga xos uslubda "Otamdan qolgan dalalar" romanini yaratdi. Ushbu romanida o'zbek dehqonining tipik obrazini yaratdi. O'zbek millatining taqdiri, o'tmishi va kelajagini turli obrazlar timsolida badiiy tarzda jonlantirilib, asarga o'zgacha tus berdi.

Xulosa qilib aytganda, qissalardagi mavzular munofiqlik, nafs, buzuqlik, mafkuraviy siyosatning oqibatlari haqida bo'ladigan bo'lsa, "Otamdan qolgan dalalar" romanida sobiq sho'rolar tuzumi tomonidan olib borilgan mustamlakachilik siyosatining illatlari, millat erki uchun kurashlarning parokandalikka uchrash sabablari, paxta yakka-hokimligining salbiy oqibatlari, millatning qatag'on qilinishini o'zbek xalqi taqdiri misolida ochib beradi. Yozuvchining badiiy maxorati shundaki, roman mohiyatiga jalb etilgan mavzu uch avlod – bobo, ota, o'g'il – Jamoliddin, Aqrab,

⁶ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2018.- B.32

Dehqonqul timsolida mustamlaka natijasida yuksalgan emas, balki, fojiaga yetaklangan avlod tadrijini ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dilmurod Quronov. "Adabiyotshunoslikka kirish" Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent-2004
2. Ozod Sharafiddinov. "Saylanma" . "Sharq" nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2018
3. Murod, Tog'ay «Oydinda yurgan odamlar» - T.: « Sano-standart» nashriyoti, 2017, -87b
4. Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2018.-360 b